

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
B.Shermuhammadov, D.Namozova Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
B.Shermuhammadov, B.Baratov Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari	18
D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
B.Qurbonova Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish	25
I.Siddiqov Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari	29
A.Xo'jayev Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	33
X.Qodirov Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari	38
B.Baydjanov Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi	42
A.Turaxanov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	49
R.Madaliyev Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
X.Yulbarsova Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	56
A.Soyibnazarov Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
S.Kamchiyev Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
N.Mamatqulova Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	71
S.Sulaymanova Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
M.Aripjanova Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili	80
D.Yo'ldosheva Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	83
N.Dusimbetova Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
T.Turgunbayev Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari	92
N.Yuldasheva Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar	95

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INFORMATSION
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI****ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ****PEDAGOGICAL SYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CULTURE OF
FUTURE TEACHERS IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT****Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich¹,
Raxmatov Odiljon Raxmonberdiyevich²**

- ¹**Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich** – Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor
- ²**Raxmatov Odiljon Raxmonberdiyevich** – Farg'ona davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi raqamli texnologiyalar sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarni talab qiladi, shuning uchun ta'lim tizimi o'zgarishi va talabalarning axborotlardan shaxsiy foydalanishi, ularning kasbiy faoliyati uchun ham raqamli ko'nikmalarga, axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo'lishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan turli xil o'quv modellaridan foydalangan holda raqamli texnologiyalarning pedagogika sohasida asosiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada rasmiy, norasmiy va ma'lumotli o'quv modellari tasvirlangan, ushbu modellarni amalga oshirish tamoyillari shakllantirilgan, turli pozitsiyalardan raqamli ko'nikmalarni olish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan: talabaning qiziqishi, bilimlarni qo'llash, bilim olish usullari, tomonlarning qiziqishi, o'qitish shakllari o'rganilgan.

Аннотация

Инновационное развитие Узбекистана требует определенных знаний и навыков в области цифровых технологий, поэтому система образования должна быть изменена и направлена на приобретение цифровых навыков как для личного пользования учащихся, так и для их профессиональной деятельности. В связи с этим особую актуальность приобретают вопросы формирования базовых и профессиональных навыков в области педагогики цифровых технологий с использованием различных моделей обучения. В статье описаны формальные, неформальные и информационные модели обучения, сформулированы принципы реализации этих моделей, рассмотрены направления приобретения цифровых навыков с различных позиций: интерес студента, применение знаний, способы получения знаний, изучены интересы сторон, формы обучения. В статье предлагаются критерии оценки цифровых навыков, знаний, умений с точки зрения интереса студента и применения знаний.

Abstract

The innovative development of Uzbekistan requires certain knowledge and skills in the field of digital technologies, therefore, the educational system should be aimed at changing and obtaining digital skills for the personal use of students, their professional activities as well. In this regard, the issues of the formation of basic and professional skills in the field of Pedagogy of digital technologies using various training models remain especially relevant. The article describes formal, informal and informative educational models, the principles of implementing these models are formulated, the directions for obtaining digital skills from different positions are considered: the student's interest, the application of knowledge, the methods of obtaining knowledge, the interest of the parties, the forms of training are studied. In the article, criteria for evaluating digital skills, knowledge, skills are proposed in terms of student interest and application of knowledge.

Kalit so'zlar: ta'lim, raqamli texnologiyalar, ko'nikmalar, kompetentsiya, o'qitish modeli, tamoyillari, baholash mezonlari.

Ключевые слова: образование, цифровые технологии, навыки, компетенции, модель обучения, принципы, критерии оценки.

Key words: education, digital technology, skills, competence, training model, principles, assessment criteria.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida jamiyatning axborotlashuvi darajasining oshishi, axborot texnologiyalarining rivoji yoshlardan ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi o'zgarishlarga moslashish hamda jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashni kafolatlovchi chuqur bilim va o'ziga xos fikrlashni talab etmoqda. Bu jarayon, ba'zi olimlar nazarida, nafaqat OAV, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni ham qamrab olmoqda.

Bir soʻz bilan aytganda, axborotlashuv jarayonlarining shiddat bilan kechishi, yosh avlodning maʼnaviy qiyofasida bir tomondan, axborot resurslari va axborot vositalaridan samarali foydalanish koʻnikmalarini oʻz ichiga oluvchi axborot madaniyatini shakllantirish, ikkinchi tomondan esa, ularni bu sohadagi turli xurujlar va tahdidlardan asrashni hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirmoqda.

Axborot nazariyasida axborotning qanchalik foydali ekani va maqsadga yoʻnaltirilganligiga urgʻu beradigan pragmatik jihat kuchli tavsiflab berilgan. Bu qarashga koʻra axborotning foydalilik meʼyori uning mavhumlik meʼyoriga bogʻliq boʻlib, agar xabar olish jarayonida isteʼmolchi ongidagi muayyan masala boʻyicha mavhumlik oʻzgarsa, axborotning foydaliligi xabar olingungacha boʻlgan va undan keyingi mavhumlik oʻrtasidagi farqqa teng boʻladi.

“Maʼnaviyat asosiy tushunchalar izohli lugʻati”da taʼkidlanganidek, u boradagi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini umumlashtirish asosida, axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, koʻpaytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani — informatika (lotinchada: tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida “xabar”, “axborot” sohasini tashkil etadi. Ana shu soha bilan bogʻliq shakllangan «Informatsiologiya” (lotincha: tanishtirish, tushuntirish va yunoncha: soʻz, taʼlimot soʻzlaridan tuzilgan) — tirik hamda notirik tabiatdagi va umuman, olamdagi barcha jarayonlarni axborotlar asosida umumlashtirib oʻrganuvchi fan hisoblanadi. Jamiyatning kompyuterlashuvi va internet tufayli vujudga kelayotgan falsafiy muammolarning muhim spektri ijtimoiy taraqqiyot, uning manbalari, bosqich va rivojlanish mezonlari bilan bogʻliq. Hozirgi zamonda ilgʻor davlatlarning olimlari va mutaxassislari tomonidan axborot nazariyasidan tashqari bu sohada koʻplab taʼlimotlar va qarashlar ishlab chiqildi, ularni amaliyoti bilan bogʻliq izlanishlar olib borilmoqda. Bu nuqtai-nazardan, axborotlashgan jamiyatga taalluqli muammolarni oʻrganish hamda istiqbolli yoʻnalishlarni belgilab olishda iqtisodiy, texnik, ijtimoiy-madaniy va falsafiy nuqtai-nazaridan tadqiqotlar olib borish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Amerikalik faylasuf Daniyel Bellning fikricha, boshlangan axborot inqilobi ikki inqilobdan iborat: kompyuter inqilobi va telekommunikatsiya inqilobi, buning natijasida axborotni butun ijtimoiy hayotning ayniqsa, iqtisodiy hayotning markaziy boʻgʻini boʻlgan texnika yaratildi.⁴

Kompyuterlashuvni umumsotsiologik pozitsiyadan turib anglash jamiyat taraqqiyotining yangi «triada” shaklidagi konsepsiyasini ilgari surishni taqozo qildi. Bu borada D.Belga asosiy ijtimoiy rivojlanish bosqichi sifatida agrar, industrial va postindustrial jamiyatlarni ajratib koʻrsatadi (postindustrial jamiyatni keyinchalik u informatsion jamiyat deb atagan). XXI asrning boshiga kelib postindustrial jamiyat fazasiga D.Bell hisoblashicha, AQSH, Yaponiya, Gʻarbiy Yevropa qadam qoʻyadi.

Shu munosabat bilan, D.Bell ana shunday axborotlashtirish jarayoni jamiyatning kelajagini belgilaydi deb hisoblaydi, yaʼni bunda tovar yetishmovchiligi kuzatilmaydi, biroq axborot va vaqt defitsiti saqlanib qoladi. Axborot iqtisodning ustuvorligi qaror topadi va uning asosida – korporativ strategiya vujudga keladi. Axborot tovarga aylanadi, axborot xizmat esa, shuningdek, fan va bilim jamoat tashkilotlarining markazida boʻladi, bilim xususiy mulkka bogʻliq boʻlmagan xarakterga ega ijtimoiy tus oladi. Bilimlar oshishi eksponensial egri chiziq koʻrinishida boʻladi, bilimlarning samaradorligi — yangi texnologiyalarning yaratilishi bilan belgilanadi.

D.Bellning ushbu fikrlariga diqqat qilinsa, bugungi kunda ularning koʻp jihatdan tasdiqlangani va ayni hayot haqiqatini aks ettirgani maʼlum boʻladi. Ayni paytda, D.Bell tushunchasidagi informatsion jamiyat gʻoyasi postindustrial jamiyat sifatida oʻz tarafdorlariga ham, dushmanlariga ham ega ekanini ham qayd etmoq zarur. Jumladan, S.Nora va A.Minklarning birinchi marta Parijda 1978-yilda chop qilingan, «Jamiyatning kompyuterlashuvi. Fransiya prezidentiga maʼruza” kitobida, D.Bell postindustrializmga ishonchsizlik munosabati ifodalangan.

Maʼruza mualliflari Fransiya prezidentiga madaniy ziddiyatlarni informatsion jamiyatda prognoz qilish muhimligini taʼkidlashar ekan, informatsion jamiyat industrial jamiyatga nisbatan kamroq tizimlashgan va polimorf, yaʼni koʻp shakllidir, deya uqtirishgan. Koʻp shakllilik, yaʼni polimorflik omillaridan biri maʼlumotlar bazasining samaradorligi va elektron mashinalarning tilni soddalashtirish anʼanasiga munosabati boʻladi. Shunday qilib, yagona tilni shakllantirib, kompyuterlashuv madaniy tengsizlikka barham beradi. Ularning fikricha, bunday sharoitda faqat zarur axborotga ega hokimiyat mamlakat taraqqiyotiga yordam berishi va uning mustaqilligini kafolatlashi mumkin.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Olingan natijalar va ularning muhokamasiga asoslangan holda ko'rish mumkinki, axborot taraqqiyoti davlatning iqtisodiy farovonligi, tinchlik tamoyili, xalqlarning ijtimoiy farovonligida va boshqa shu kabi ijobiy omillarga ta'siri quyida mujassam etilgan:

- axborot jamiyatning tarkibiy qismlari alohida olingan sivilizatsiyalar hisoblanadi. Axborot jamiyatining eng muhim mezonini axborot-kommunikativ texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi va insonning o'z-o'zini ro'yobga chiqarish imkoniyatidan iborat;

- postsanoat madaniyati ko'p narsada o'zining taraqqiyot manbayini yo'qqa chiqardi va ko'plab muammolarni keltirib chiqardi, bu muammolarning yechimi faqatgina global miqyosdagi axborot jamiyati doirasida topishi mumkin;

- axborot jamiyatiga ijtimoiy tuzilmaning ma'lum ideal andozasi sifatida qarash kerak, bu narsa hayotda amalga oshmasligi ham mumkin;

- axborot jamiyati g'oyasi, hattoki o'zining paydo bo'lish bosqichidayoq qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan, bunday qarama-qarshiliklar, bir tomondan, axborot tizimlarining rivojlanishiga imkon yaratsa, boshqa tomondan inson uchun turli muammolarni keltirib chiqaradi;

- axborot jamiyatining vujudga kelishi zamonaviy tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi; ushbu vujudga kelishning alohida belgilarini turli ijtimoiy sohalarda kuzatish mumkin;

- ijtimoiy tizimlarning ikki tomonlama rivojlanishi bosqichida shaxsning roli ortib boradi, shuning uchun ham bo'lg'usi jamiyat qurilishini muhokama va tadqiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sotsiumning hozirgi, demakki kelajakdagi holatiga ham ta'sir o'tkazadi.

Bu jihatdan, amerikalik faylasuf, sotsiolog va futurolog Elvin Tofflerning «Uchinchi to'lqin» asari bizning mavzuyimiz bilan bog'liq konseptual masalalarning mohiyatini G'arb talqinida anglashga yordam beradigan kitoblardan biri hisoblanadi. Unda muallif jamiyat taraqqiyotini «bosqichlar almashinuvi» sifatida o'rganar ekan, axborotlashgan postindustrial jamiyat taraqqiyotini, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa iqtisodiy xizmat sohalaridan keyin keluvchi «to'rtinchi» iqtisod axborotlashgan sektorining ustuvorligi bilan bog'laydi. U industrial jamiyatning asosi – kapital va mehnat bilan birga, axborotlashgan jamiyatda axborot va bilimga bog'liq, deb hisoblaydi.

Muallif o'z asarida «uchinchi to'lqin» deb jamiyat taraqqiyotining axborot — kommunikatsion texnologiyalar asoslangan oxirgi fazasini nazarda tutadi.

Asar muallifi fikriga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarning uchinchi to'lqini namoyon bo'la boshladi. Bu o'zgarishlarning sababi kompyuterlar, lazer texnikasi, biotexnologiya, gen injeneriyasi, informatika, elektronika, televideokommunikatsiya rivoji bilan bog'liq. Bunday jamiyatda yetakchi rol axborot — kommunikatsion texnologiyalarga o'tib, ular jamiyatning barcha strukturalariga, odamlarning turmush tarzi va ongiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatda boylik yaratishning yangi texnologiyalari vujudga keladi, ular endi odamning jismoniy kuchiga emas, aqliy qobiliyatiga suyanadi, undan foydalanadi.

«Eng yaqin tarixiy sarhad, — deb yozadi Toffler – o'n ming yil avval qishloq xo'jaligini joriy etish tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlarning ilk to'lqinidek hali juda-juda olisda». Darhaqiqat, o'zgarishlarning ikkinchi to'lqini industrial inqilob tufayli yuzaga keldi. Hozirgi kunda biz o'zgarishlarning uchinchi to'lqin farzandlarimiz. Uchinchi to'lqin axborotlashuv inqilobining samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Postindustrial ishlab chiqarishda ishchi kuchining emas, informatsiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning ahamiyati orta boradi. Endi ishlab chiqarishning asosiy xo'jayini malaka va informatsiyaga ega bo'lgan xodimdir. Postindustrial jamiyatning vujudga kelishi jarayonida ishlab chiqarishdagi tarkibiy yangilanishlar, mehnat mazmuni va xarakterining o'zgarishi oqibatida ishsizlik orta boradi. Ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarining qo'shilib ketishi yangi xodim tipini — ishlab chiqaruvchi iste'molchini yuzaga keltiradi. Postindustrial jamiyatda asosiy e'tibor mashinalarni o'zgartirishga emas, kishilar ongi va madaniyatini o'zgartirishga qaratiladi. Olamni tushunish, hayotdan orqada qolmaslik uchun shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim bilan shug'ullanish, keng miqyosda fikrlashga o'rganish zarur bo'ladi.

Ijtimoiy boylik yaratilishning yangi axborot usulining belgilari orasida Toffler quyidagilarni sanab o'tadi: tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan supersimvolik iqtisodiy sistema. Bu iqtisodiy sistema bevosita axborot va bilimga bog'liq bo'ladi. Yangi sistema ommaviy ishlab chiqarishga asoslanmagan, balki mahsulotning tez va sezgir iste'mol qilishga asoslangan, mahsulot shuning uchun kichik partiyalarda, biroq qiymati ommaviy ishlab chiqarilganidan baland bo'lmagan

PEDAGOGIKA

narxlarda ishlab chiqariladi. Narxning balandlab ketmasligi yangi axborot texnologiyalar tufayli ta'minlanadi. Ishlab chiqarishning an'anaviy omillari – mehnati, xomashyo, kapital o'z ahamiyatini yo'qotadi va simbolik bilimlar tomonidan siqilib chiqariladi;

- almashuv birliklari bo'lib metall yoki qog'oz pullar emas, balki axborot vositalar xizmat qiladi. Kapital yanada harakatchanroq bo'ladi (mobillashadi), uning manbalari soni ortadi. Yangi iqtisod asosini xususiy uylarni ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari, banklar va hukumat muassasalari, maktab va universitetlar bilan bog'laydigan kompyuter sistemalari tashkil qiladi, bunday sistemalarda qo'l (dastaki) sanoat harakatlari axborotlar bilan bo'ladigan manipulyatsiyalar bilan almashtirilib, mehnat faoliyatini elektron kollejlarda tashkil qilish imkonini beradi. Mikro elektron revolyusiya inson intellektining resursi va qudratini ancha oshirib yuboradi;

- tovarlar va xizmatlar sistemalashtiriladi, bu narsa standartlarni kengaytirish va qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bunday standartlarni belgilovchi axborot ustidan nazorat qilish uchun kurash ketadi. Byurokratik strukturalar vaqtinchalik kichik ittifoqlar tomonidan siqib chiqariladi. Bilim byurokratiyasi o'rmini erkin axborot oqimi oladi. Tashkillanish shakllarining turli ko'rinishlari va miqdori ortadi. Har bir xodim ishlab chiqarish axborot vositalari mulkdoriga aylangani uchun xodimlarni o'zaro almashtirish imkoni yo'qoladi, chunki har bir xodim axborot vositalarning faoliyat ko'rsatishi haqida to'liq xabarlar bo'ladi. Bilimni tashabbus bilan qo'sha oladigan, g'oyani amaliyotda gavdalantira oladigan yangi tipdagi xodim tipi paydo bo'ladi;

- ijtimoiy boyluk yaratish siklik xarakterda bo'ladi. Sikllarni boshqarish metodikasi kompyuter monitoringini va doimiy ravishda ilmiy va ekologik bilimni ortishini taqozo qiladi. Bunday sikllar avval industrial ishlab chiqarish davrida alohida — alohida bo'lgan ishlab chiqaruvchi va iste'molchini birlashtiradi. Iste'molchi ishlab chiqaruvchi uchun talab va zarur axborotni ta'minlaydi;

- yangi sistema bir yo'la lokal darajada (mikroiqtisodda) va global darajada (makroiqtisodiy) rivojlanadi. Iqtisodiy har ikkala daraja rivoji umumiy xo'jalik jarayoniga integrallanib, bu jarayon individning manfaatlari va ehtiyojlariga yo'naltiriladi. Axborot sivilizatsiyasini yaratish yo'li namoyon bo'ladi. Shu tufayli odamlarning axborotning o'ziga munosabati ham o'zgaradi. Tovar o'rniga axborot ijodiy kuchlar va izlanishlarning stimulyatori tarzida qabullanadi, chunki odamlarning doimiy ravishda kompyuter bilan muomalada bo'lishlari ularning keng axborot global fazoda o'zlarini qanday tutishga o'rgatadi. Bu oilani mustahkamlaydi, mehnat faoliyatini prinsipial darajada o'zgartiradi, hayot tarzi, tafakkur tarzini charxlaydi, madaniyatning mohiyatini o'zgartiradi.

“Uchinchi to'lqin ustuvorliklari kayfiyatida bo'lgan omma ommaviy axborot vositalari yordamida o'z his va didlarini manipulyatsiya qilish uchun uning o'zi bu vositalarni boshqacha boshlaydi, ommaviy axborotni passiv iste'molchisidan o'zining shaxsiy ekranli qurilmalarida uning imkoniyatlarini faol ishlab chiqaruvchiga aylanib qoladi.”⁶

Uchinchi to'lqin, To'fflarning fikriga ko'ra, hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan barcha sivilizatsiyalardan farqli o'laroq, shunday dunyoviy sivilizatsiyalarni yaratdiki, u o'zining yanada sog'lomligi, aql idroki va hayotbaxshligi, tartibli va demokratligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, uchinchi to'lqinda katta xavf-xatar ham yashiringan, bu ekologik fojialardan tortib yadroviy terrorizm yoki elektron fashizm xavfigacha bo'lishi mumkin.⁷

Demak, axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simbolik kommunikatsiyalarga bog'liq. Bizning nazarimizda, jamiyat rivojlanishida bilim va axborot doimo ahamiyatga ega. Lekin mazkur jamiyatda bilimning rivojlanishi va uni bilimga ta'siri ishlab chiqarish manbai sifatida tadqiq etiladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ba'zi olimlar fikricha, axborotlashgan jamiyatda mamlakatning rivojlanishi bilimlarni va axborotni innovatsiya va tatbiq etish o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan va axborotni qayta ishlaydigan bilimlar va moslamalarni yuzaga kelishiga nisbatan qo'llashi bilan belgilanadi.

Bilim subyekt tomonidan, o'z navbatida shaxsiy mulohaza asosida shakllantiriladi. I.Masuda “axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi”, deb taxmin qiladi.

Uning fikricha, bu jamiyat sinflarga bo'linmaydi va ziddiyatsiz – ya'ni, ahil, tinch-totuv jamiyat bo'lib, uni chog'roq hukumat va davlat apparati boshqaradi.

XULOSA

Xulosalar shuni anglatadiki, zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining global maydoni birinchi darajali bo'lib qolmoqda. Bunday maydonga individual va jamoaviy, obyektiv va subyektiv, moddiy va g'oyaviy tushunchalar birgalikda kiradi va ular global miqyosda ifodalangan yagona yangi bir turni hosil qilishadi. Shundan kelib chiqqan holda yagona axborot maydonida turib qanday qilib ichki va tashqi "o'ziniki" va "o'zganiki" tushunchalarini farqlay olishni tadqiqot qilish vazifasi paydo bo'ladi. Ular orasidagi demarkatsiya chizig'ini o'tkazish qanday shartlar asosida amalga oshirilishini bilib olish lozim bo'ladi. Zero, bunday chiziqning yo'qolib ketishi, biron bir davlatning o'z chegaralarini ushlab qolishga qodir emasligi — yangi ko'rinishdagi xavf – axborot xavfini keltirib chiqaradi. Axborot xavfliligi bir qancha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- voqelikni o'zgartirishga yo'naltirilgan virtual dunyoni yaratish;
- insonlarning ongi va xulqini hiyla-nayranglarga solish;
- tashqi qoliplar asosida ularning maqsadlari, qadriyatlarini va turmush tarzini o'zgartirish;
- axborotlarni buzib ko'rsatish kabi.

Axborot xavfliligining bu va boshqa shakllari insonning axborotga bo'lgan ehtiyojiga, haqiqat va yolg'onni, foydali va foydasiz ma'lumotlarni bir-biridan ajrata bilish layoqatliligi (yoki layoqatsizligiga) bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ong va borliqning o'zaro ta'siri axborot maydonida yana dolzarb masalaga aylanadi. Bu narsa, ayniqsa, ular o'zida bilim, texnologiya va dasturlarni ifoda etgan axborot oqimlarining umumiy maydonida qolib ketishganida yaqqol namoyon bo'ladi. Ularni farqlay olmaslik, texnik moddiy tusga keltirilgan muhitning subyektiv debochasini almashtirish kabi salbiy yo'nalishni yuzaga keltiradi. Bunday muhitda esa «yaxshi» va «yomon» axloq qoidalariga ko'ra farqlanib bo'lmaydigan darajaga kelib qoladi. Destruktiv jarayonlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun obyektiv xolis shakllarga kirib olish imkoniyatiga ega bo'lib olganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Poppel G.L., Goldsteyn B. Informatsionnaya texnologiya – millionnaya millionnie pribili. Per.s ang. - M.: Ekonomika, 2005
2. Kolyada M.G. Okno v udivitelniy mir informatiki. -Donetsk: Staller, 2007.
3. Axborot nazariyasi // Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1 jild. – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. – 117 bet.
4. Abdullayev J.S. Perexod k informatsionnomu obshestvu i stanovleniye noosferi (filosofsko-metodologicheskoye aspekti). Diss. kand.filos.nauk., -M., 1993
5. Toffler E. Tretya volna. M., 1999. 79 b.
6. Toffler E. Tretya volna. M., 1999. 79 b.
7. Toffler E. Tretya volna. M., 1999. -123b.